

O`ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMI

Ilmiy rahbar: Mansurov Hamroqul tadqiqodchi
Abdusalomov Sardor Abduqodirovich SamDU
Iqtisodiyot va biznes fakulteti I kurs talabasi
jizzaxboy@mail.ru +998933335596

Annotatsiya: „O`zstandart” agentligi tomonidan respublikada „Ziyorat turizm” ni rivojlantirish maqsadida Turizmni rivojlantirish davlat qo`mitasi va Diniy ishlar bo`yicha qo`mitaning qo`shma qaroriga muvofiq „Halol talablari asosida mahsulotlar va xizmatlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish tartibi to`g`risida” gi nizom loyihasi tayyorlandi.

Kalit so`zlar: ziyorat turizmi, xizmat turizmi, taklif turizmi.

Аннотация: Согласно совместному постановлению Государственного комитета Республики Узбекистан по развитию туризма и Комитета по делам религий «Порядок добровольной сертификации товаров и услуг на основе Халальных требований» разработан «Узстандартом» проект Устав был подготовлен.

Ключевые слова: религиозный туризм, услуга, система туристического предложения.

Annotation: According to the joint resolution of the State Committee of the Republic of Uzbekistan for Tourism Development and the Committee on Religious Affairs, the "Order of voluntary certification of products and services on the basis of Halal Requirements" developed by "Uzstandart" the draft of the Charter was prepared.

Key words: religious tourism, service, tourist offer system.

2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo`yicha 1-navbatdagi chora tadbirlari belgilab olingan. Mamlakatimizda ish o`rinlari yaratish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal ravishda rivojlantirish, valyuta tushumlarini ko`paytirish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish kabi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yaqin istiqbolada hal qilish uchun keng salohiyatga ega bo`lgan turizm sohasini rivojlantirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu manoda O`zbekiston Respublikasining Prezidentining „2017 yil 16-avgustdagi 2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo`yicha 1-navbatdagi chora-tadbirlar to`g`risida” gi qaror qabul qilindi. Ayni paytda mamlakatimiz hududlarida zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlariga alohida e`tibor qaratilgan. Shu maqsad dasturga muvofiq Andijon viloyati Xonobod shahrida dam olish hududlari, Jizzax viloyati Forish va Arnasoy tumanlarida, Ayda-Arnasoy ko`llari sohilida beshta yangi zamonaviy dam oliosh hududlari tashkil etish, Qashqadaryo viloyati Shaxrizabz va Qarshi shaharlarida to`rt yulduzli mehmonxonalar Toshkent viloyati Bo`stonliq tumani, Chimyon tog`i massivi mehmonxona majmuasi barpo etish, Navoiy viloyatida To`dako`l janubiy sohilida ichki turizm va Aydarko`l sohillarida xorijlik turistlar uchun plyajlar tashkil etish ko`zda tutilgan. Bizdagi turizm sanoati hali ham ovqatlanish bilan ham bog`liq masalalar muammoligicha qolmoqda. Masalan, yevropaliklar standart usullaridan tayyorlangan oddiy va hushtam taomlarni maqbul ko`rishadi. Buning uchun esa xorijiy mamlakatlardagi mehmonxonalar komplekslarida foydalanadigan maxsus asbob-uskunalar va tegishli taom texnologiyalarini o`rnatish zarur. Mamlakatimizdagi mahalliy mehmonxonalar 20-25 ga yaqin taomlarni taklif qilishi mumkin. Biroq harbiy andozalar bo`yich

faoliyat ko'rsatayotgan turistik kompleks 200 ga yaqin taomlarni taklif qilish imkoniyatiga ega. Bu muommalarni hal etishning birdan bir yo'li shaxsiy restoran va kafelar sonini oshirish va ulardagi xizmat ko'rsatish va jahon andozalariga mos ravishda tashkil etishdir. Mamlakatimizga kelgan turistlar bilan muloqat qilganimizda, ularning 20%i ovqatlanish xizmatlaridan qanoatlanganliklarini bildirishdi. 41%i esa taomlar sifatiga baho berishni o'zlariga ma'qul topishmadi. Bunday muommani hal etish uchun xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatadigan umumiy ovqatlanish obyektlarini sertifikatlashtirish va nazorat qilish juda katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari xorijiy turistlar 73%i ovqatlanish punktlari xizmat ko'rsatishi to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaganlikdan shikoyat qiladi. Bundan tashqari turistlar bilan qilgan suhbat natijalariga ko'ra ular O'zbekistonda yo'llar juda yomon darajada ekanligidan nolishdi chunki agar biz Singapur yoki Malayziyaga boradigan bo'lsak uyerda yo'llar juda oily darajada ekanligiga ko'zimiz tushadi. Shuningdek bizda internet tizimi sifati juda yomon ekanligini ham aytib o'tdi.

Rivojlangan mamlakatlarda turizm uyg'un holatda taraqqiy etadi. Ichki va qabul qilish turizmi balansi mavjud. Ichki turizm milliy turistik resurslardan unumli foydalash va turizm industriyasini va infratuzilmasini rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekiston ulkan tabiiy va madaniy-tarixiy resurslari bilan xohlagan turistlar talabini qondirish va kelajakga ulkan turistlar oqimini kutib olish imkoniyatiga ega hisoblanadi. Bugungi kunda turizm industriyasini yanada rivojlantirish turizm infratuzilmasini yuqori ko'tarish, turizm investitsiyalarini ko'proq jalb etish turizmida servisni zamon talablariga moslashtirish xizmat ko'rsatuvchi subyektlardagi xizmat narxini pasaytirish, ularga o'zaro raqobat muhitini yaratish, xorijga chiqish va xorijdan kelish vizalarini olishiga mexanizmni soddalashtirish, malakali kadrlarni yetishtirish shu kabi muommalarni birinchi navbatda juda katta tezlik bilan ijobiy hal etishimiz kerak. O'z navbatida keyingi yillarda Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlari hukumatimiz va xorijiy investorlar tomonidan turizm infratuzilmasi uchun mablag'lar ajratildi. Shuningdek yirik mehmonxonalar qurildi. Modernizatsiya qilindi, yangi zamon talabiga mos avtobus va avialaynerlar sotib olindi. Bugungi kunda ko'plab xususiy mehmonxonalar va milliy uylar bunyod etilib mahalliy va xorijiy turistlarni qabul qilib bormoqda. Rekriatsion hududlari, masalan Chorbog'-Chimyon hududiga respublika budjetidan katta mablag' ajratildi. Madaniy-tarixiy yodgorliklarni ta'minlash ishlari davom etmoqda. Lekin shunga qaramasdan respublikamizda ichki turizm ziyorat turizmi masalalari ko'ngildagidek holatda emas. Bundan tashqari hattoki, respublikamiz aholisidan aksariyat qismi butun dunyoga mashhur bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva Shaxrisabiz kabi tarixiy shaharlarni biror marotaba bo'lsa ham ko'rish imkoniyatiga ega emas. Shu bois ichki turizmni rivojlantirish aholimizda turizm va dam olish ehtiyojlarini to'liqroq qondirish uchun turistik resurslardan maksimal tarzda foydalanish zarur. Bizni o'ylantirayotgan boshqa iqtisodiy omillar mavjud. Bularga biz bemalol turistik xizmatlardan ayniqsa, transport, mehmonxona, ovqatlantirish xizmatlari darajasi va narxi turistlarni umuman qanoatlantirmaydi. Yana bir masala bu turistik statistikadir. Xozirgi kunda qancha xorijiy fuqarolar respublikamizga kelganligi va

respublikamizdan chiqib ketganligi haqida „O'zbekturizm" MK aniq ma'lumot bera olmaydi. Har bir tashkilot o'zida statistikasini olib boradi. Tashqi ishlar vazirligi bergan vazifalar soni bilan bojxona qo'mitasi iqtisodiy deklaratsiya to'ldirilgan fuqarolar soni bilan davlat chegaralarini muhofoza qilish qo'mitasi aeroport, temir yo'l vokzallarda asosiy punktlariga keluvchi va ketuvchilarni ro'yxatlash bilan shug'ullanadi. „O'zbekturizm" MK xizmat ko'rsatilgan turistlar soni bilan statistika olib boradilar. Demak bitta turist bir qancha statistik ma'lumotlarda ro'yxatga olinadi. Shu boisdan ushbu masalalarni hal qila oladigan guruh tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Butun jahon turizm va sayyohlik bo'yicha kengashi tomonidan berilgan bahoga ko'ra O'zbekiston sayyohlar tashrifi bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 150-o'rinni egalladi. Yurtimiz bo'yicha atiga 757 ta mehmonxona mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra ayni paytda turizmga mamlakat yalpi ichki mahsulotlardagi ulushi 2%ni tashkil etadi. Bu judayam past ko'rsatgich hisoblanadi. Turizm faoliyatini amalga oshirishning firma va tashkilotlarning soni esa 433 tadan iborat. Turizm sohasini rivojlantirish va sayyohlar sonini oshirish borasida takliflar:

- Turizm sohasida faoliyat yuritmoqchi bo'lgan tadbirkorlarga imtiyozli kreditlarni berish hamda yer oldi-berdi ishlari yengillashtirilib, jahon andozalariga javob beruvchi mehmonxonalar sonini ko'paytirish, shu yo'l bilan raqobatni kuchaytirish, mehmonxona narxlarini arzonlashtirish.
- „O'zbekiston havo yo'llari" bilan kelishilgan holda aviabiletlarni onlayn xarid qilishni yo'lga qo'yib shaffof onlayn xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish taklifi dolzarb masala.
- „O'zbekiston temir yo'llari" biletlari onlayn sotib olish tizimini yana ham mukammallashtirilsa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Afrasiyob tez yurar poyezdiga yirik sayyohlar guruhlari biletlarni sotib olish ancha mushkul ish shu masalani ham ko'rib chiqish lozim. Qayta bu ish jarayonlarini ancha yengillashtirish lozim deb o'ylayman.
- O'zbekistonni davlat sifatida yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan soha mutaxassislari bilan hamjihatlikda O'zbekiston to'g'risida bitta ixcham „sayyohlar uchun qo'llanma" tayyorlab uni barcha tillarga tarjima qilib arzonlashtirilgan narxlarda yoki agar imkoni bo'lsa bepul chet sayyohlik firmalariga tarqatsa ham bo'ladi.
- O'zbekiston hayotida qiziqarli ma'lumotlar bilan fotoalbomni turizm sohasini mutaxassislari bilan hamkorlikda nashrga tayyorlab turli tillarda yuqori sifatli chop etish uning narxi qimmat bo'lishi shart emas va O'zbekistonda barcha kitob do'konlari hamda sayyohlar tashrif buyuruvchi do'konlarda sotishni yo'lga qo'yish.
- Yilning eng go'zal va tartibli honadon ko'chasi, mahallasi, qishlog'i, tumani, shahri, viloyati ko'rik tanlovlari e'lon qilinsa har yili ularni rag'batlantirish yo'lga qo'yilsa mamlakatimiz yildan yilga go'zallashib borishi tayin.
- Yurtimiz urf-odat va an'analarimiz milliy qadiryat va boy tarixiy merosimiz haqida hujjatli va badiiy filmlar, konkurslar e'lon qilish va eng saralarini

rag`batlantirib, ular yaratgan filmlar turli tillarda dublaj qilinib xalqaro ko`nkurslarga qatnashsak sayyohlar soni oshishi turgan gap.

Hozirgi paytda Jizzax viloyatiga turistlar oqimi nisbatan oshib bormoqda. Biz bugun turistik zonalarini tashkil etishimiz va borlarini yanada zamonaviylashtirishimiz hamda qadimiy obodalarni asrab avaylashimiz lozim. Jizzaxdagi tarixiy obidalarni vaholanki, butun O`zbekistondagi tarixiy obidalarni yangilashimiz kerak emas nazarimda, ularni boricha o`z holatida saqlashimiz kerak. Chunki men bir Malayziyalik turist bilan suhbatlashganimda u menga bu obida va yodgorliklarni ta`mirlamasdan asl holatda saqlash kerakligini bildirgan edi. Bu o`z navbatida chet ellik turistlar e`tiborini yanada ko`proq tortishiga zamin yaratadi. Arnasoy tumanida bugungi kunda Aydarko`l atroflarida zamonaviy mehmonxonalar va chorbog`lar bunyod etilmoqda. Bundan tashqari fikr bildiradigan bo`lsam, o`sha Aydarko`lga turistlar etiborini jalb etadigan binolar, zamonaviy va qadimiy uslubdagi bozor va do`konlarni tashkil etish, ko`lga eng zamonaviy va tarixiy uslubdagi kemalar va qayiqlar olib kelinishini tashkil etish maqsadga muvofiq bo`lar edi. Baxmal tog`lariga eksperiment sayohatlarni alo darajada tashkil etish, va tog` yon bag`irlarida kulba tashkil etish shu bilan birga tog`larning xavfsiz joylariga zamonaviy va ixcham sayyohlar e`tiborini tortadigan mehmonxonalar qurish, chunonchi, Chimyon tog`laridagidek kabi. Bunda biz turistlar bundan tashqari mahalliy sayyohlarni ham e`tiborini tortishga intilgan bo`lar edik. Bundan tashqari bir masalaga juda katta e`tabor qaratishimiz lozim deb o`ylayman, chunki bu narsa xorijiy sayyohlarda juda yomon natijaga olib kelishi ham mumkin. Bu esa keyingi kelayotgan sayyohlarga ta`sir qilishi mumkin. Masala shundan iboratki, bu ichki hudud yo`llar, turistik zonadagi yo`llar va internet aloqa xizmatlari ya`ni internet sifati hisoblanadi. Tan olish kerakki bugungi kunda O`zbekistonda ya`ni chekka hududlarida internet aloqa sifati juda yomon ekanligi sir emas. Buni biz albatta tezda bartaraf eta olmaymiz. Lekin buni qilmasdan turib boshqa jihatlariga ta`sir qiladi. Misol keltiradigan bo`lsak, agar siz Singapur davlatiga sayohatga tashrif buyursangiz xohlagan joyida bo`lsangiz ham internet sifati, ishlash tezligi juda yuqori darajada ekanligini ko`rishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. www.ziyo.uz
2. [www.o`zbekturizm.uz](http://www.o`zbekturizm.uz)
3. www.kun.uz
4. O`zbekiston musulmonlar idorasi axborat tizimi
5. www.gazeta.uz
6. „O`zstandart” agentligi
7. www.sputniknews-uz.com